

«O‘ZAGROSUG‘URTA»
aksiyadorlik jamiyati
Boshqaruvi
B U Y R U G ‘ I



П Р И К А З
Правление
акционерного общества
«УЗАГРОСУГУРТА»

2026-yil 21-iyul

420-k-sonli

Toshkent shahri

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish uchun mas‘ul shaxsni tayinlash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 2026-yil 21-iyuldagi 02-27-2-4-4350-sonli xatida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida, sifatli va qonunchilik talablariga muvofiq ko‘rib chiqish, sug‘urta xizmatlari bo‘yicha murojaatlar yuzasidan tizimli monitoring hamda nazoratni amalga oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “O‘zagrosug‘urta” AJ Boshqaruvi raisi o‘rinbosari **Yusupov Alisher Nasirdjanovich** va Ijro etuvchi apparat boshlig‘i v.b. **Isayev Kamoliddin Norbekovich** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish uchun mas‘ul shaxs etib belgilansin.

2. Boshqaruvi raisi o‘rinbosari **A.Yusupov** va Ijro etuvchi apparat boshlig‘i v.b. **K. Isayev zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:**

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini nazorat qilish;

- murojaatlarning kelib chiqish sabablari tahlilini olib borish hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va bu borada tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- Agentlik tomonidan yuborilgan so‘rovlar bo‘yicha tegishli materiallarni tayyorlash va belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta‘minlash.

3. Jamiyat Boshqaruvining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (Sh.Xolto‘rayev) mazkur buyruq asosida mas‘ul shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Jamiyat Boshqaruvining Ijro etuvchi apparati (K.Isayev) mazkur buyruq nusxasini O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga belgilangan muddatda yuborilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni boshqaruv raisi o'rinbosarlari zimnamda qoldiraman.

Boshqaruvi raisi v.v.b



A.Yusupov